

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI TAHRIRDAGI KONSTITUTSIYASI EKOLOGIK MUAMMOLARNI YANGICHA YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISHNING NEGIZI

Akramov Sherzodbek Ikromjon o‘g‘li

Qo‘qon Davlat Universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish (huquq ta‘limi) - 70111102
mutahassisligi 2-bosqich magistranti

Sherzodbekakramov002@gmail.com tel raqam: +99891-150-85-02

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20163379>

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ekologik xavfsizlik, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga oid normalarning mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, ekologik muammolarni yangicha yondashuv asosida bartaraf etishda konstitutsiyaviy islohotlarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Maqolada fuqarolarning qulay atrof-muhitda yashash huquqi, ekologik burchlari, davlatning ekologik barqarorlikni ta‘minlash borasidagi vazifalari hamda Orolbo‘yi mintaqasini muhofaza qilishga oid konstitutsiyaviy normalar ilmiy-huquqiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, ekologiya, atrof-muhit, ekologik siyosat, ekologik huquq, ekologik muammolar, Orolbo‘yi mintaqasi.

Annotation. This article analyzes the essence and content of the provisions related to environmental safety, environmental protection, and the rational use of natural resources enshrined in the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The article also reveals the role and significance of constitutional reforms in addressing environmental problems through innovative approaches. Particular attention is paid to citizens' rights to live in a healthy environment, their environmental responsibilities, the duties of the state in ensuring environmental sustainability, as well as constitutional provisions aimed at protecting the Aral Sea region from a scientific and legal perspective.

Keywords: Constitution, ecology, environment, environmental policy, environmental law, environmental problems, Aral Sea region.

Аннотация. В данной статье анализируются сущность и содержание норм, закреплённых в новой редакции Конституции Республики Узбекистан, касающихся экологической безопасности, охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов. Также раскрываются роль и значение конституционных реформ в устранении экологических проблем на основе нового подхода. В статье с научно-правовой точки зрения освещаются право граждан на благоприятную окружающую среду, их экологические обязанности, задачи государства по обеспечению экологической устойчивости, а также конституционные нормы, направленные на охрану Приаральского региона.

Ключевые слова: Конституция, экология, окружающая среда, экологическая политика, экологическое право, экологические проблемы.

KIRISH

Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan eng dolzarb va murakkab muammolardan biri ekologik muammolardir. Mazkur muammolar nafaqat alohida davlatlar, balki butun jahon hamjamiyati taraqqiyoti va insoniyat kelajagiga jiddiy xavf tug‘dirayotgan omil sifatida e’tirof etilmoqda.

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi, atmosfera havosining ifloslanishi, suv va yer resurslarining kamayishi, biologik xilma-xillikning yo'qolib borishi kabi ekologik tahdidlar xalqaro tashkilotlar, olimlar hamda siyosatchilar tomonidan keng muhokama qilinmoqda. Shu bois ekologik xavfsizlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, bozor iqtisodiyoti tamoyillarini joriy etish hamda fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, ekologik muammolarni bartaraf etish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasida muhim huquqiy hamda institutsional asoslar shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonun hujjatlari atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish hamda fuqarolarning qulay ekologik muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlashda mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJA

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilinishi jarayonida ovoz berishda qatnashgan fuqarolarning 90,2 foizi (90,21 foizi) yoki 15 034 608 nafari (15 040 055 nafari) yoqlab, 9,35 foizi yoki 1 558 817 nafari (shuningdek 9,35 nafari) o'zgarishga qarshi ovoz bergan. Yaroqsiz deb topilgan byulletenlar soni 73 672 ta (73 934 ta) yoki 0,44% ni tashkil etdi. Ko'pchilik ovozi bilan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi maqullandi. 2023-yil 1-mayidan boshlab O'zbekiston Respublikasida oliy yuridik kuchga aylandi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishning mustahkam siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib berdi. Mazkur Konstitutsiya mamlakatimiz milliy davlatchiligi rivojining yangi bosqichini boshlab, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Konstitutsiyaviy islohotlar xalq manfaatlarini ta'minlash, inson qadrini ulug'lash hamda demokratik tamoyillarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, umumxalq referendumini ko'p millatli xalqimizning birdamligi, hamjihatligi hamda suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat barpo etish yo'lidagi qat'iy irodasining yorqin ifodasi bo'ldi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilib, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari milliy qonunchilikka uyg'unlashtirildi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach qo'shilgan ilk xalqaro-huquqiy hujjatlardan biri Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" tamoyillari Konstitutsiyamizda o'z ifodasini topgan. Bugungi kunda O'zbekiston inson huquqlari sohasidagi 80 ga yaqin xalqaro hujjatlarga qo'shilgan bo'lib, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan inson huquqlariga oid 7 ta asosiy xalqaro shartnomaning to'laqonli ishtirokchisiga aylangan. Bu esa mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish borasidagi islohotlarning izchil davom etayotganidan dalolat beradi [2].

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat qurilishining ustuvor strategik maqsadi sifatida ijtimoiy davlat barpo etish g'oyasi mustahkamlandi. Mazkur yondashuv inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etish, aholining munosib turmush darajasini ta'minlash hamda jamiyatda ijtimoiy adolat va birdamlik tamoyillarini qaror

toptirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, Konstitutsiyada fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash hamda davlatning inson oldidagi mas'uliyatini kuchaytirishga qaratilgan yangi normalar o'z aksini topdi.

Shuningdek, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning zamonaviy va samarali mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar yanada mustahkamlandi. Xususan, inson sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash, qonun ustuvorligini ta'minlash, sud-huquq tizimini takomillashtirish hamda fuqarolarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa Yangi O'zbekistonda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash va insonparvar davlat barpo etish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizini tashkil etuvchi "Inson qadri uchun" g'oyasi hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo'lgan "Inson-jamiyat-davlat" degan yondashuv Konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singdirilmoqda.

Yangi O'zbekiston hayotida inson qadr-qimmatini, sha'ni va g'ururi barcha sohalarida birinchi o'rinda turishi oliy darajada o'z ifodasini topmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada nazarda tutilayotgan normalarning salmoqli qismi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga taalluqlidir. Atrof-muhit inson salomatligi va hayotiga ta'sir qiluvchi muhim omildir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligining 30-40 foizi atrof-muhit holatiga bog'liq. Qulay atrof-muhit tabiiy zaxiralar qisqarayotgan, global iqlim o'zgarishi, ekologiya va tabiat bilan bog'liq muammolar insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan hozirgi davrda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ko'pgina rivojlangan davlatlarda ham ushbu muammo keng muhokama etilmoqda hamda ekologiya, atrof muhit muhofazasiga oid yangi normalar konstitutsiyalarga kiritilmoqda [3].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Muqaddimasidayoq "...mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko'paytirishga hamda hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib" [1], mazkur masalaga davlat siyosati darajasida urg'u berilayotganligi tahsinga sazovordir. Bu yondashuvni konstitutsiyaviy darajada belgilash – davlatimizning tabiat muhofazasiga nisbatan strategik qarashini aks ettiradi [3]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49, 62, 66, 68-moddalarida ekologik normalari ekologik siyosatga bag'ishlangan.

Konstitutsiyaning 49-moddasida har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega. Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o'tkaziladi. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Davlat Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko'radi [1].

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "...Konstitutsiyada ekologik huquqlari to'g'risidagi moddalarning kiritilishi "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyilini to'la ro'yobga chiqarish imkonini yaratadi". Bu so'zlar ekologik muvozanat va qulay atrof-muhitni saqlashning inson qadr-qimmatini ta'minlashdagi muhim ahamiyatini yana bir bor ta'kidlaydi.

Konstitutsiyaviy normalar tizimi jamiyat va tabiatning o'zaro aloqalari jarayonida yuzaga keladigan hamda tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tavsifidan kelib chiqib, shartli

ravishda umumiy va maxsus ekologik normalarga bo'linadi. Mazkur tizim demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat hokimiyati organlari faoliyatining asosiy prinsiplari va yo'nalishlarini belgilashda, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq hamda erkinliklarini kafolatlashda, shuningdek, ekologik huquq-tartibotni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. [3]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologik taraqqiyot strategiyasining asosiy qoidalari, ekologik xavfsizlik va aholining qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlariga oid talablar mustahkamlangan. Ushbu siyosiy-huquqiy hujjat mamlakatimizda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning asosiy tamoyillarini belgilab beradi.

Konstitutsiyaviy normalarning ekologik siyosatni amalga oshirishdagi o'rni va ahamiyati beqiyos bo'lib, aynan asosiy qonunda davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat birlashmalarining ekologik faoliyatini tashkil etish prinsiplari mustahkamlanadi, fuqarolarning ekologik huquq va burchlari belgilanadi hamda ekologik barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlari aniqlab beriladi.

Mazkur normalarning ahamiyati, avvalo, fuqarolarning ekologik burchlari Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ushbu normalar fuqarolarning tabiatni muhofaza qilishga oid majburiyatlarini belgilash bilan cheklanmay, ularning ekologik huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Xususan, aholining sog'lom va qulay tabiiy muhitda yashashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tabiiy resurslardan oqilona hamda samarali foydalanishni ta'minlash, ekologik xavfsizlikka tahdid soluvchi omillarning oldini olish va ekologik muammolarni bartaraf etish konstitutsiyaviy normalarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi ekologik normalarda Orolbo'yi mintaqasiga alohida e'tibor qaratilgani muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyada davlat zimmasiga Orolbo'yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, hududni ijtimoiy hamda iqtisodiy jihatdan rivojlantirish bo'yicha zarur choralarni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan.

Mazkur qoida Orol muammosining nafaqat ekologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va gumanitar jihatdan ham dolzarb masala ekanligini konstitutsiyaviy darajada e'tirof etadi.

Orol dengizining qurishi oqibatida yuzaga kelgan ekologik inqiroz mintaqadagi tabiiy muvozanatning buzilishiga, aholi salomatligi yomonlashuviga, yer va suv resurslarining degradatsiyasiga hamda iqlim sharoitining keskin o'zgarishiga sabab bo'ldi. Shu bois Orolbo'yi hududidagi ekologik muammolarni bartaraf etish va ekologik tizimni tiklash nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ega masala sifatida e'tirof etilmoqda. Konstitutsiyada Orolbo'yi masalasining alohida mustahkamlanishi davlatning ushbu hududni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategik siyosatini ifodalaydi.

Bu orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash, aholining qulay atrof-muhitda yashash huquqini kafolatlash, hududning barqaror rivojlanishiga erishish hamda kelajak avlodlar uchun sog'lom ekologik muhitni saqlab qolish maqsad qilingan. Mazkur konstitutsiyaviy yondashuv O'zbekistonning ekologik muammolarni hal etishda uzoq muddatli va tizimli siyosat yuritayotganini ko'rsatadi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan ekologik-huquqiy normalar rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi va xalqaro ekologik-huquqiy standartlarga uyg'un holda shakllantirilgan bo'lib, mamlakatimizda barqaror rivojlanishni ta'minlash, atrof-muhit

musaffoligini saqlash hamda aholi salomatligini muhofaza qilishga xizmat qilmoqda. Mazkur konstitutsiyaviy normalar ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va kelajak avlodlar manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini belgilab beradi. Konstitutsiyada har bir shaxsning qulay atrof-muhitda yashash huquqi, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyati hamda davlatning ekologik barqarorlikni ta'minlash borasidagi vazifalari mustahkamlangan. Bu esa ekologik siyosatni amalga oshirishda inson manfaatlari, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, tabiiy boyliklardan foydalanishda ularni asrab-avaylash, tiklash va kelajak avlodlar uchun saqlab qolish tamoyillarining konstitutsiyaviy darajada e'tirof etilishi ekologik huquqning muhim yutuqlaridan biridir.

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologik-huquqiy normalarning mustahkamlanishi ekologik davlat siyosatini samarali amalga oshirish, fuqarolarning ekologik huquq va manfaatlarini himoya qilish, sog'lom ekologik muhitni yaratish hamda jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim kafolati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi//Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son
2. Rustem Omirzakov. Constitutional and legal guarantees of environmental rights of citizens of the Republic of Uzbekistan // Academic international conference on multi-disciplinary studies and education. Hosted from Pittsburgh, USA. June 2023. DOI:[10.13140/RG.2.2.21148.67205](https://doi.org/10.13140/RG.2.2.21148.67205)
3. Nazarov Elbek, Ne'matov Nursulton O'zbekistonda inson va fuqarolarning ekologik huquqlari // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2024. №16. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-inson-va-fuqarolarning-ekologik-huquqlari>
4. Muhammadjon Tursunov, Konstitutsiya – ekologik barqarorlikning huquqiy poydevori // Yuz. uz. 2025. <https://yuz.uz/uz/news/konstitutsiya--ekologik-barqarorlikning-huquqiy-poydevori>